

VOYAGA YETMAGANLAR TARBIYASIDAGI NUQSONLAR VA ULARNI OLDINI OLIHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Amonova Angelina Sharofiddinovna

IIV Akademiyasi 3-kurs 331-guruh kursanti

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada ko'pchilik voyaga yetmaganlar tarbiyasida uchraydigan nuqsonlar, ularning kelib chiqish sabablari, unga olib kelgan shart-sharoitlar hamda ularni oldini olishning psixologik usullari muhokama qilingan. Shuningdek, ushbu maqolada tarbiyasida nuqsonlar aniqlangan bolalar bilan ishlashning tarbiyaviy-psixologik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *tarbiyaviy nuqsonlar, ijobiy ustanovka, negativizm, tarbiyaviy og'ish, o'smir, o'spirin, individuallik, hissiy yaqinlik, egosentrik.*

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida biz ijtimoiy o'g'ishlar tizimini rivojlantirish, konsentrativ va reaksiyon xatti-harakatlar standartlarini yengish vositasi sifatida harakat qilishi aniqlangan, ya'ni, ular ijobiy ro'l o'ynaydi. Deviasiyaning salbiy shakllari (jinoyat, alkogolizm, giyohvandlik) ijtimoiy patologiyalardir.

Madaniy tushuntirishlarga ko'ra, og'ish madaniy meyorlar o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi. Millarning ta'kidlashicha, jamiyatning quyi qatlamining aniq submadaniyati mavjud bo'lib, uning ko'rinishlaridan biri mayda huquqbuzarliklardir. Ular odatda guruh bo'lib yurishadi. Ular faoliyati deviantlikka asoslanadi.

Psixologik manbalarga ko'ra, voyaga yetmaganlar tarbiyasida nuqsonlarning paydo bo'lishi pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S.Vigotskiy fikricha, «qiyin» o'smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biri. Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning faolligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi huquqlarni berish yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin. Psixologiyada "tarbiyasi qiyin" bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud. Birinchi guruh - ijtimoiy salbiy, mustahkam qarashlarga ega bolalar; Ikkinchi guruh - qonunbuzarlarga taqlid qiluvchi bolalar; Uchinchi guruh - ijobiy va salbiy xulq - atvor stereotiplari o'rtasida ikkilanuvchi, o'z xatolarini tushunuvchi bolalardir. To'rtinchi guruh - irodali bolalarga bo'ysunuvchilar. Beshinchi guruh - qonunbuzarlik yo'lga tasodifan kirib qolganlar. Shuni aytish lozimki, tarbiyasi og'ir bolalar uchun, ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar Tarbiyali bo'lim - bu xulq-atvorini nazorat qilishdan iboratdir.

Bunday nazorat insonga yomon hatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi. Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Bola o'zini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta'sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga g'amxo'rlik qiladigan ota-onasiga bog'lanib qoladilar. Ota-onaning oldida, ular bilan muloqotda bo'lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo'qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning g'amxo'rligini bildiradigan so'zlar, hatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g'amxo'rlik va e'tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo'llab, quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko'rib chiqqan xulq-atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas. Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf-odatlarining roli katta. Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik-birodarlik xis-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi. Mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish: jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish yo'lida har bir kishining tinmay g'amxo'rlik qilishi, ijtimoiy burchni yaxshi anglash; jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlariga aslo yo'l qo'ymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muhim xislatlaridir. Tarbiya jarayonida g'amxo'rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq otaonalarga nisbatan g'amxo'r ota-onaga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo'llab-quvvatlamaganda, bola o'z hatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi. Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og'zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning ehtiyojlari strukturasini aniqlash kerak.

2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o'rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish zarur.

Voyaga yetmaganlar xulqidagi salbiy o'zgarishlarni yuzaga kelishining psixologik-pedagogik sabablariga quyidagi omillar bo'lishi mumkin:

- ijtimoiy jarayonda shaxs pozitsiyasining passivligi. Bizga ma'lumki jamiyatdagi ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlar, shaxs taraqqiyotiga to'liq o'z hukmini o'tkazadi, ammo odamlarning bir qismi o'zining yaxshi yashashi va qiziqishlari uchun ijtimoiy taraqqiyotdagi kurashlardan voz kechadi. Ijtimoiy sohalaridagi tajribalardan chetda qolish, xatti-harakati va xulqida barqaror psixologik nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;
- shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatdagi munosabatlarda shaxsning rivojlanishidagi qoloqlik; jamiyatdagi turmush qiyinchiliklari, axloqiy talablar va xulq me'yorlarining miqdor hamda sifat jihatdan ortib borishi, ularni o'zlashtira olmasligi bilan tushuntiriladi. Hozirgi paytda odam uchun axloqiy anglashni aktiv o'zlashtirilishi kamlik qiladi. Yuqori darajada madaniyatli va xulq san'atini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishi kerak. Agar o'zlashtira olmasa, shaxs shakllanishida qoloqlik vujudga keladi va o'zqiliqlarini, qarashlarini qayta ko'rishi hamda qayta tarbiyalashiga zarurat tug'iladi;
- jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashdagi kamchiliklar va xatoliklar;
- maktab va oilaviy tarbiyadagi kamchiliklar asosan, shunday holatga olib keladiki, qaysidir bolalar umumiy tarbiya tizimidan tushib qoladilar. Pedagogik jamoa tarbiyaviy ta'sir doirasini qabul qilmaydi va uning natijasida bolalar intellektual hamda axloqiy taraqqiyotda orqada qoladilar.

Voyaga yetmaganlarda tarbiyasi qiyinlik sababini o'rganayotgan o'qituvchi, tarbiyaviy ta'sirga nima qarshilik kilayapti, tarbiyasi qiyin bola nima uchun hech narsani anglashni xohlamayapti degan savollarga javob qidirishi zarur. Bundan tashqari qaysi yo'nalishlarda xulq og'ishi sodir bo'layapti mana shu savollar yechimini topishi lozim. Undan tashqari asosiy muammolardan biri ota-onalarning pedagogik bilimlarining kamligi, antipedagogik ustanovkalarni yuzaga kelishi, xattoki yaxshi oilaviy muhitdagi bolaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ustanovkalarga quyidagilar kiradi:

- ota-ona va qarindoshlar tomonidan, bolaning xaqqoniy qobiliyatini yuqori baholanishi (meni bolam hammadan talantli);
- oilaviy tarbiya noto'g'ri g'oyalardan tarkib topishi – bolalik hech qanday ma'suliyatsizlik va qiyinchiliksiz o'tishi shart (katta bo'lganda o'rganadi, ishlashga ham ulguradi);
- kattalarning hamma yaxshi narsalarni bolalarga berishga intilishi;

- ota-onalarning bola tarbiyasidagi noto'g'ri fikrlari, ya'ni asosiy tarbiyani maktab berishi kerak;
- bolaning o'quv faoliyatiga noto'g'ri munosabatda bo'lishi (bola yomon o'qisa, o'qituvchi aybdor);
- tarbiyadagi og'ishlar va kamchiliklar sababini maktabga, ko'chaga yuklanishi, ya'ni oilada yomonlikka o'rgatilmaydi kabi iboralar.

Antipedagogik ustanovkalarning shakllanishiga sabab ota-onalarning elementar psixologik-pedagogik bilimlarni bilmasligi, bolalarga haddan ziyod e'tiborni ko'p qaratilishi hamda bolaning murakkab va murg'ak qalbida nimalar kechayotganligini anglay olmasligidan kelib chiqadi.

Voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi nuqsonlarni oldini olishni alohida tahlil qilib bo'lmaydi, chunki tarbiyasi qiyinlik bir qator nohush sharoitlardan kelib chiqish sabablari majmuini tashkil qiladi. Agar pedagogik-psixologik xatolikka yo'l qo'yilsa, har bir sabablar bir-biri bilan faol xarakterga tusha boshlaydi. Tashqi salbiy faktorlar bola psixikasiga ta'sir qilib, ichki negativizm sabablarini yuzaga keltira boshlaydi. Ichki negativizmga quyidagilar kiradi:

- ong va xulq bilan o'zaro shartli qarama-qarshiliklar, shaxsiy va ijtimoiy tajriba orasida ehtiyoj va imkoniyat, maqsadlar, ustanovka va ularga yetisha olish qobiliyatlari o'rtasida yechimi yo'q nizolarni yuzaga kelishi;
- shaxs shakllanishidagi murakkab notekisliklar, ular o'z navbatida ijobiy sifat ko'rsatkichlarining nomutunosibligini keltirib chiqaradi;
- har xil kasallik va boshqa bir noxush sharoitlar natijasida umumiy taraqqiyotdagi qoloqliklar;
- bolaning yuqori darajadagi nostandartli bo'lishi, u yaqqol individuallik yoki iste'dodli bo'lishi, uni o'qituvchi va tengdoshlari tomonidan tushuna olmasligiga olib keladi;
- irsiyotdagi anamaliya (asosan jismoniy kamchiliklarda namoyon bo'ladi).

Yuqoridagi ehtimollar yaxshi sharoitda va to'g'ri tarbiya berilsa tarbiyasi qiyinlikni yuzaga keltirmaydi. Ammo oila va maktab tarbiyasida o'zina kamchilik vujudga kelsa, ular shaxsni salbiy yo'nalganligini kuchaytirib faol ravishda o'zini namoyon qilishni boshlaydi.

Tarbiyasi qiyin bolalarning xulqi og'ishganlik sabablari turlicha bo'lib, hayotiy motivlari, ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladi.

Olimlarning fikricha xulq og'ishganlik motivatsiyasiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- 1) Atrofdagilarning shaxsga nisbatan ijobiy emotsional munosabatlarining yo'qligi;
- 2) O'z-o'zini baholashda boshqalar fikrining bir joydan chiqmasligi;
- 3) Imkoniyatlari darajasidan ortiqcha talab kuchli havotirlanishni yuzaga keltirishi;

4) O'zining kuchsizligidan havotirlanishi sababli qiyinchiliklarni bartaraf qilishga ishonchning yo'qolishi;

5) Talablarga nisbatan salbiy munosabati.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga qelamizki, bolalarda tarbiyasi qiyinlik xulq og'ishining sabablarini aniqlashda va ularni qayta tarbiyalashda ijtimoiy, psixofizologik biologik omillarni inobatga olgan holda, pedagogik va psixologik faoliyatni yanada samaraliroq ishlar olib borish ahamiyatga molikdir.

Biz avvalo bolalarga nima yaxshi-yu, nima yomon, jamiyatda qanday axloq munosib yoki nomunosib deb baholanishini singdira olmog'imiz darkor. Agarki, shu jihatdan tarbiya sust borgan yoki butunlay olib borilmagan bo'lsa, aynan shu narsa endi jamoatchilik muammosiga aylanadi. Barchaga ma'lumki, aynan tarbiya oqsagan joyda turli og'ishlar yuzaga kelib, huquqbuzarliklar sodir etiladi.

Bu toifadagi voyaga yetmagan bolalar bilan psixologik-pedagogik yo'nalishdagi profilaktik ishlarni olib boorish mahalla yoshlari o'rtasidagi qonunbuzarliklarning oldini olish borasida muhim hisoblanadi. Shuningdek, mahallalarda profilaktik ishlarni tashkil etishni rejalashtirish, noqobil oilalar va ularning farzandlari bilan olib boriladigan ishlarni takomillashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari oldida boshqa bi r talay ijtimoiy, pedagogik-psixologik vazifalar ham turadi. Ular quyidagilardir:

1. Ijtimoiy-psixologik jihatdan nosog'lom muhitli oilalarni o'rganish.

2. Mahalladagi voyaga yetmagan shaxsning psixologik, tibbiy-pedagogik xususiyatlarini, turmush sharoitlarini, qiziqish va ehtiyojlarini, qiyinchilik va muammolarini, nizoli vazuyatlarni, bolalar xulq-atvoridagi og'ishlarni o'rganish.

3. Mahalladagi oilalarga axloqiy, psixologik, moddiy-madaniy va ma'rifiy jihatdan tavsiyanoma tayyorlash.

4. Oiladagi kriminal omillarni xususan, alkogolizm, narkomaniya, ota-onaning noto'g'ri hayot kechirishi, oilaviy janjallar, ota-ona tomonidan farzand tarbiyasida qo'llayotgan noto'g'ri usullarni o'rganish va kerakli maslahatlar berish.

5. Mahalladagi oilalarning ijtimoiy-demografik omillari, ya'ni to'liq yoki noto'liq oila, holatlarini o'rganish.

6. Oilalarda ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi pedagogik-psixologik bilimlari darajasini o'rganish.

7. Mahalladagi tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlarni ijtimoiy foydali mashg'ulotlarga jalb qilish.

8. Oilalarda bolalarning ijtimoiy yetimligi(nazoratsizlik va qarovsizlik) keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va uning oldini olishga zaruriy maslahatlar berish

9. Bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish.
10. Tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlar bilan yakka tartibda ishlash choralari ko'rish.
11. Mahalladagi bolalar tarbiyasida qo'ni-qo'shnilar ta'sirini kuchaytirish.
12. Mahallada bolalar tarbiyasini oila – maktab – mahalla hamkorligi konsepsiyasi asosida tashkil etishga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boymurodov.N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi. 2009y
2. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1982 y.
3. Davletshin. M. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y
4. Karimova V va boshq. Psixologiya. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nash. 2002 y
5. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etik asoslari. T.: Zarqalam 2006 y
6. Nishonova Z va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.: O'z. yozuv. uyush. nash. 2006 y
7. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: Fan. 1994 y
8. To'laganova G. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. T.: Universitet, 2005 y
9. www. Isss.uz
10. www. Edu.uz
11. www. Ziyonet.uz